

## Kollej o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, joriy yilning 13 dekabr sanasidagi R-5413 Farmoyishida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini sifatli ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish va uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, yoshlar bilan **“Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!”** degan umumiy g'oya ostida tadbirlar tashkil etilmoqda.

Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Yunusobod tumani bo'linmasi bilan hamkorlikda harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasi professor-o'qituvchilari ta'lim muassasalariga tashrif buyurib, u yerdagi yoshlar bilan davra suhbatini olib bordilar. Yunusobod mashinasozlik kasb-hunar kollejida tashkil etilgan davra suhbatida harbiy kafedra katta o'qituvchisi rezervdagi podpolkovnik Ergashev Xaydar Ikramovich va harbiy kafedra zirxli texnikalarni jangda qo'llanishi sikl talabalari institut va shahar miqyosida o'tkazilgan sport musobaqalari hamda fan olimpiadalari sovrindorlari, talabalar Raxmanov Xabibullo Abdulla o'g'li, Abdumajidov Erali Begali o'g'li shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, imtiyoz asosida oliy ta'lim muassasasining talabalar safidan o'rin olgan talaba Abdumannonov Akmal Anvarovichlar qatnashdilar.

Davra suhbatini davomida o'quvchilarga harbiy vatanparvarlik ruhidagi videoroliklar va taqdimot materiallari namoyish qilindi. O'quvchilar orasida Singapurda o'tkazilgan qo'l jangi san'ati musobaqasi g'olibi 3-kurs o'quvchisi Salimov Abdumalik G'olibjon o'g'li, shahar miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda faol ishtirok etib sovrinli o'rinlarni egallagan 2-kurs o'quvchisi Ergashev Abduraxmon Bobur o'g'li tomonidan tadbir tashkilotchilariga berilgan savollar suhbatning yanada qiziqarliroq tus olishini ta'minladi.



**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti harbiy kafedrasi boshlig'i podpolkovnik R. Minlishev axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**